**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**
**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**МИРЗО УЛУҒБЕК номидаги**
**САМАРҚАНД ДАВЛАТ АРХИТЕКТУРА-ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ**

**«КАСБИЙ ТАЪЛИМ» КАФЕДРАСИ**

Институтнинг **илмий-услубий кенгашида** кўриб чиқилди ва чоп этишга рухсат берилди.

Рўйхатга олинди: №_________
“____” ____________ 2014 йил.

**“ТАСДИҚЛАЙМАН”**
**Илмий-услубий кенгаш раиси**
т. ф. н., доцент **А.Т. Қўлдошев**
_______________________
“____”____________ 2014 йил

# “МАХСУС КУРС”

фанидан

## Маъруза матнлари

5140900 - “Касбий таълим (5580200 - Бино ва иншоотлар қурилиши, 5580400-Мухандислик коммуникациялар қурилиши таълим йўналишлари учун мўлжалланган)

**САМАРҚАНД - 2014**

Мазкур **маърузалар матни -** Олий таълим Давлат стандарти(№2048- 2010 й.) ва "Махсус курс" фанининг **намунавий ўқув дастури** ва 2013 йил _26__ август куни рўйхатга олинган **Ишчи ўқув** дастурига мувофиқ тайёрланди.

"**Махсус курс**" фанидан **маърузалар матни 5140900** - "Касбий таълим (Бинолар ва иншоотлар қурилиши , 5580400-Мухандислик коммуникациялар қурилиши) таълим йўналишлари учун мўлжалланган.


**Тузувчи:** "**Касбий таълим**" кафедраси катта ўқитувчиси, Усмонов Б. Ф.

**Тақризчилар:** "**Касбий таълим**" кафедраси доценти, техника фанлари номзоди **Рахимов А. Қ.**

"**Касбий таълим**" кафедраси катта ўқитувчиси, **Хушвақтов У. А.**


«**Касбий таълим** » кафедраси мажлисида (2013 йил «_26_» август №_1__ баённомасида) ва «**Қурилишни бошқариш**» факультетининг илмий-услубий кенгаш йиғилишида (2013 йил «_29__» август №_1_ баённомасида) кўриб чиқилган ва маъқулланган.


Нашр белгилари: СамДАҚИ, қоғоз бичими А 4, буюртма №....., адади ....., ҳажми ..... шартли босма табоқ

**MA’RUZA MATNI**

## 1-MAVZU. 4 Соат. Kafedrada bajariladigan diplom loyixalarining mavzulari, tarkibi, ularga, quyiladigan talabalar va ularni rasmiylashtirish.

Reja:

1. **Kafedrada bajariladigan diplom loyixalari**.
2. **Diplom loihalarning tarkibi**.
3. **Diplom loihalarga quyilgan talablar va ularni rasmiylashtirish.**

**Tayanch tushunchalar:** diplom loiha, diplom mavzular, diplom ishlarining mavzusi, rasmiylashtirish.

**Maxsus kurs** pedagogika fanining sohasi hisoblanib, ta’lim berish qonuniyatlarini o’rgatadi.

**Maxsus kurs** – мутахассисlik fanlar boyicha ta’lim berishda maqsad, mazmun, metod, shakl, vositalarni qo’llashni o’rgatadi.

Maxsus kurs o’qitish metodikasining asosiy vazifalari:

- ta’lim jarayoni elementlari tizimining bog’liqligini o’rgatish;
- o’quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida ularda mehnatga ongli munosabatni tarkib topishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirish yo’llarini o’rgatish;
- ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etishni o’rgatish.

## KIRISH

O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni xamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta’kidlanganidek, mamlakatimizda ikki boskichli (bakalavriyat, magistratura) oliy ta’lim tizimi joriy etilgan.

Bakalavriyat taxsili to’rt yildan iborat bo’lib, u Davlat attestatsiyasini topshirish, xamda diplom loyixasini himoyasi bilan nihoyasiga yetadi. Shuning uchun xam O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’limi vazirligining 2008 yil 31 iyuldagi №16/286 sonli qarori e’lon kilinib, unda Oliy ta’lim muassasalarida diplom loyixasini tayyorlash va himoya kilish "Nizomi" ishlab chikildi. Ushbu qarorda xar bir oliy o’quv yurti, jumladan, xar bir fakultet bakalavrlar tayyorlaydigan yo’nalishlar xususiyatlaridan kelib chikib, aniq, metodik tavsiyalar yaratish zarurligi kayd kilingan.

5140900 Kasb ta’limi (Bino va inshootlar qurilishi, Amaliy va tasviriy san’at yunalishlarida ta’lim olayotgan talabalar bajaradigan diplom loyixalari mazmunini kasb-xunar ta’limi amaliyoti extiyojlari bilan muvofiqligini ta’minlash maqsadga muvofikdir.

Mutaxassis-pedagok kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirishda kasb-hunar kollejlarida qulay psixologik-pedagogik muhit yarata olishga ham nazariy, ham

amaliy jixatdan tayyor bo'lishini ta'minlash maqsadida, diplom loyihalar mavzusi, talabaning mavzu yuzasidan dastlabki kasbiy pedagogik tadqiqotlar o'tkaza olish mahoratini shakllantirish katta axamiyatga ega.

Bo'lajak mutaxassis pedagog (bakalavr) faqat tanlangan ixtisoslik doirasidagina emas, rahbar, tashkilotchi sifatida ham zarur bo'lgan sifatlarni, umumkasbiy fanlari bo'yicha ham diplom loyixasini bajarish jarayonida shakllantiriladi.

Shuning uchun tegishli o'quv rejasida umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha diplom loyihalarini bajarish va shu munosabat bilan diplom loyiha mavzusi, uni bajarish xaqidagi tavsiyalar yaratish eng dolzarb vazifa hisoblanadi.

## Diplom loyixasi tushunchasi

Diplom loyihasi tushunchasi talabalar bilimini yakuniy davlat attestasiyasidan o'tkazishning asosiy shakllaridan biri bo'lib, u so'nggi to'rtinchi boskichda bajariladi .

Diplom loyihasi talabalarning barcha fanlar bo'yicha olgan nazariy bilimlar va pedagogik faoliyatga oid egallangan amaliy ko'nikmalarining o'zaro uyg'unligini o'ziga mujassamlashtirgan ijodiy ilmiy ishdir.

Kasbiy ta'lim Bino va inshootlar qurilishi, Amaliy va tasviriy san'at yo'nalishidagi diplom loyihalar kasb va o'qitish metodikasi bo'yicha bajariladi.

## Diplom loyihasining maqsad va vazifalari

Diplom loyihasini bajarib uni himoya kilish talaba uchun eng so'nggi mas'uliyatli boskich bo'lib hisoblanadi. Diplom loyihasini bajarishdan maqsad talabaning butun o'qish jarayonida olgan bilimlarini umumlashtirish kengaytirish va uni amalda tadbiq eta olish.

Shuningdek talabaning kasbiy pedagogik qobiliyatlarini tarkib topganligini namoyish qilish talabaning yaxlit pedagogik jarayonni tashkil etish malakasiga ega ekanligini ko'rsatish. Bunda talaba alohida fanlar bo'yicha kurs ishlarini hisob - grafik ishlarini bajarishdagi mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi .

Diplom loyihasining sifati va uni himoya qilish darajasi bo'lajak mutaxassisning ish faoliyatiga to'la tayyor ekanligini belgilaydi .

Diplom loyixasini mavzulari turli xil bo'lib ko'pincha ular buyurtmachi topshiriqlari va real loyihalar asosida bajarilib amalda tadbik etiladi .

Diplom loyihasida talabaning izlanuvchanligi, ilmiy tadqiqot elementlarining borligi, ixtirochiligi, qabul qilingan yechimlarini chuqur tahlil qila olishi yuqori baholanadi.

Ilmiy tadqiqot ishlari bajarishga moyilligi bo'lgan bitiruvchi talabalar kafedra qarori bilan bitiruv ishi o'rniga o'quv tadqiqot ishlarini ham bajarishlari mumkin.

Bu ishlarning sifati va ilmiy darajasiga qarab bitiruvchi DAK tomonidan magistraturada o'qishga tavsiya etishi imkoniga ega bo'ladi.

## Diplom loyixasini bajarishga raxbarliq qilish

Diplom loyihasi rahbari etib kafedraning va institutning professor va dosentlari (hamkorlik shartnomasi asosida), kasb-xunar ta'limi bo'yicha tajribali mutaxassis-

pedagoglar,ilmiy xodimlar hamda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi xududiy boshqarmalari va o'quv yurtlarining yuqori malakali pedagogik xodimlari tayinlanadi. Ularning nomzodlari mutaxassislik kafedrasi mudirining bildirishnomasiga asosan institut rektorining buyrug'i bilan tasdiklanadi.

## Diplom loyixasi raxbarining vazifalari:

-diplom loyihasini bajarish uchun topshirik beradi;

-diplom loyiha ishni bajarish dasturini tuzadi va uni o'zi rahbarlik qilayotgan talabaga tavsiya qiladi;

-mavzuga oid texnik, ilmiy, pedagogik, metodik-texnik adabiyotlar ma'lumotlar hamda boshqa manbalar ro'yxatini tavsiya etadi;

-mavzuga oid muntazam ravishda maslahatlar o'tkazadi;

-talaba bajargan diplom loyiha ishning sifati va mazmuniga javob beradi;

-diplom loyihasi yakunlangach unga mulohaza (fikrnoma) yozib kafedra mudiriga topshiradi;

-zarurat bo'lgan hollarda ayrim bo'limlar bo'yicha maslahatchilarni tavsiya qilish va bu hakda kafedra mudiriga bildirishnoma yozishi mumkin.

## Diplom loyihasini bajarishni tashkil qilish

Fakultet dekani 4-boskichning boshida talabalarni bitiruvchi kafedralarga taqsimlaydi.

Bitiruvchi talabalar (8 semestrda) maxsus fanni tinglaydi. Maxsus fan dasturiga diplom loyihasini bajarish uchun kerakli mavzular to'la hajmda kiritiladi.

Diplom loyiha mavzulari institut rektori tomonidan tasdiqlangandan keyin, rahbar bitiruvchi talabaga topshiriq varaqasini to'ldirib beradi.

Unda asosiy dastlabki ma'lumotlar har qaysi bo'limlarning taxminiy tarkibi va hajmi ishni bajarish bo'limlar bo'yicha maslahatchilarning familiyasi ko'rsatiladi .

Kafedra bitiruvchilariga maxsus ish joyi bo'lgan xona ajratiladi. Diplom loyihaga umumiy rahbarlikni talaba rahbari olib boradi. Kafedra salohiyati yetarli bo'lsa, ya'ni mutaxassis o'qituvchilar mavjud bo'lsa ular boshka bo'limlar bo'yicha maslaxatchi bo'lib tayinlanishlari mumkin. Maslahatchilar o'z maslahatlarini bitiruvchilarga maxsus xonada va ajratilgan vaqtda berishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Talaba maslahatni haftasiga 2 marta olishi kerak. Buning uchun u oldindan tayyorgarlik ko'rishi zarur (tushunmagan savollarni yozib olishi, maslahatchiga ko'rsatadigan materiallarni va xokazo).

## Nazorat savollari

1. diplom loyixasining tarkibi nimalardan iborat?
2. maxsus kurs fanlarini o'qitish maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
1. ta'lim jarayoni tuzilmasiga nimalar kiradi?

## Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar.

1. Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari uchun me'yyooriy – huquqiy hujjatlar to'plami. O'MKHTM. Toshkent, 2005.
2. Olimov Q. T. va boshqalar. Ixtisoslik fanlarini o'qitish metidikasi. – Toshkent: Fan, 2004.
3. "Qasbiy ta'lim" yo'nalishlari bo'yicha diplom loyixasini bajarish uchun metodik tavsiyalar. "Kasbiy ta'lim" fakulteti dekani dos. O'. T. O'sarov tahriri ostida Samarqand. 2010 y.
4. Mirsaidov K. J. Ixtisoslik fanlarini o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi. – Toshkent: Shiituvchi, 1996.
5. Xodjaboyev A. Xusanov L. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2007.
6. Abduqudusov O. O'rta maxsus, kasb – hunar ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiya jarayyonini samaradorligini oshirish muammolari. Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2002.

**Qo'shimcha tavsiya etilgan adabiyotlar**

7. Avliyoqulov N. X. "Zamonaviy o'qitish texnologiyalari" Buxoro 2002 y.
8. Avliyoqulov N. X. "O'qitishning model tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari". Buxoro. 2002 y.
9. D. Tojiboyeva, A. Yuldoshev "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" Too'kent 2009 y.

## 2-MAVZU. 2 Соат. Diplom loyixalarida bajariladigan ilmiy – tadqiqot ishlar (yo'nalish bo'yicha) va kasb ta'lim muammolari

**Reja:**

1. Diplom loihasidagi ilmiy ishlar
2. Kasb ta'lim muammolari

**Tayanch tushunchalar:** ta'lim, ta'lim turlari, ilmiy ishlar, ta'lim muammolari

**Ta'lim shakli-** belgilangan tartibda va aynan sodir bo'ladigan o'qituvchi va o'quvchining Ixtisoslik tashkil qilingan faoliyatining tashqi ifodasidir.

Shunday qilib, ta'limning tashkiliy shakli didaktik kategoriya sifatida o'quv jarayonining quyidagi tashqi tomonlarini, ya'ni

- uning mavjudlik tarzini: tartib va rejimini;
- **o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ifodasini aks ettiradi.**

Ta'lim jarayonidagi o'zaro hamkorlik faoliyatimizning tashqi ifodasi sifatida uning tashkiliy shakli (ta'lim oluvchilar soniga ko'ra) muhim hisoblanadi. Ta'lim shakllariini quyidagicha ifodalash mumkin (1-chizma):

### Diplom loyihasini baholash me'zonlari

Reyting nizomiga asosan diplom loyihasi uchun maksimal ball 100 deb olinadi diplom loyiha mavzusini dolzarbligi, tushuntiruv yozuvining davlat talim standarti talablariga mosligi, grafik qismini standart talablariga muvofiqligi, rahbar va taqrizchining fikrnomasi hamda talabaning himoyadagi javoblarini hisobga olib, ixtisoslik yo'nalishi va metodikadan bajarilgan diplom loyihasini baholashda ballarni quyidagicha baholash maqsadga muvofikdir:

- diplom ishning mazmuni, ilmiylik va ijodkorlik, fikrlarni yoritishdagi izchillik va ravonlik uchun 50 ball. Bunda ilmiy rahbar va taqrizchilarning fikrlari hisobga olinadi;
- diplom ishning yozilishi va muqovalanishi, talabaning imlo va uslubiy savodligi uchun 10 ball;
- grafik qismining standart talablariga muvofiqligi uchun 20 ball;
- diplom ishining himoyasi uchun 20 ball.

Talaba berilgan mavzuga oid topshiriqlarni mohiyatiga tushunib, mazmuni ixtisoslik yo'nalishi bo'yicha davlat standartida va namunaviy o'quv dasturida ko'rsatilgan fanlarning asosiy tayanch tushuncha va iboralariga bog'lab, aniq, lo'nda, izchil va ilmiy yoritishga erishsa, mavzu yuzasidan ijodiy yoki metodik yangilik kiritsa, nazariy fikrlarni dalillar asosida izohlagan bo'lsa, ishda imlo, uslubiy, texnik nuqsonlar bo'lmasa yoki bunday nuqsonlar bir-ikkitadan oshmasa, umuman olganda diplom ishga qo'yilgan talablarga to'la javob bersa, talaba 86-100 ball bilan "a'lo" baholanadi.

Talaba berilgan mavzu mohiyatini atroflicha yoritishga erishsa, uni yo'nalish bo'yicha davlat standartida, namunaviy o'quv dasturida ko'rsatilgan fanlarning asosiy tayanch tushuncha va iboralariga bog'lashga harakat qilgan bo'lsa, ishda imlo, uslubiy, texnik nuqsonlar 2-4 tadan oshmasa, ishni yoritishda mantiqiy yaxlitlikka erishgan bo'lsa, malakaviy ish 71-85 ball bilan "yaxshi" baholanadi.

Talaba berilgan mavzu mohiyatini yuzaki va qisman ochib bergan bo'lsa, ishni mazmunidan mavzuga oid davlat standartida ko'rsatilgan fanlarning asosiy tayanch tushuncha va iboralari hakida chuqur bilimga ega emasligi sezilsa, bayon mantiqiy yaxlitlikka erishmagan bo'lsa, malakaviy ish 55-70 ball bilan "qoniqarli" baholanadi.

## Diplom loyihasini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar

Diplom loyihasi tushuntirish xatining yozilishi, muqovalanishi va grafik qismining bajarilishi konstruktorlik xujatlari talablariga javob berishi kerak.

San'at yo'nalishida bajariladigan diplom loyixasiga qo'yiladigan talablar tanlangan mavzuga qarab mutaxassis o'qituvchilari tomonidan kafedraning qarori bilan belgilanadi.

Tushuntirish xati talabaning shaxsan o'z qo'li bilan (210-297 mm) formatli oq varaqga siyoh bilan yoziladi. Varaqning chap tomonidan 25 mm, qolgan tomonlaridan 10 mm qoldirib, boshka rang bilan ramka chiziladi.

Varaqning yuqori o'ng tomonida, 10-15 mm ramkada betlash raqami ko'rsatiladi.

Tushuntirish xatining tarkibi quyidagicha:

1. Bitiruv ish mavzusi yozilgan titul varaqasi.
2. Bitiruv ish topshirig'i.
3. Mundarija.
4. Asosiy matn.
5. Ilova.

Diplom loyiha bo'limlarining joylashishi grafikda ko'rsatilgan tartibga mos kelishi kerak.

Har qaysi bo'limning nomlanishi boshka rang bilan, tagiga chizib va grafiklar qalamda bajariladi. Ba'zi bir rasm, chizma va hokazolar millimetrli kog'ozda yoki kal'kada berilishi mumkin. Tushuntirish xatidagi matteriallar aniq, ixcham, savodli qilib bayon etilishi kerak. Matnda takrorlanishga yo'l qo'yilmaslik va albatta kvadrat qavsda "[ ]" bitiruv ishda qo'llanilgan adabiyotlarga ishora berilishi zarur. Tushuntirish xatidagi formulalar harfli ko'rinishda oldin to'la yozilib, so'ngra ularning sonli raqamlari ko'rsatilib, birliklari SI sistemasida (N, KN, MPa va x.k.) ifoda etilishi kerak. Tushuntirish xatidagi jadval, rasm, chizma va formulalar bo'lgan varaqlar boshdan boshlab birga betlanadi. Tushuntirish xati qattiq qog'oz bilan muqovalanishi kerak. Ustki muqovaning ichki tomoniga rahbarning mulohazasi va taqrizni solib qo'yish uchun konvert yopishtiriladi. Tushuntirish xatining xajmi 10-15 ming so'zdan (60-70 bet) dan iborat bo'lishi talab etiladi.

Bitiruv ishining grafik qismi kalamda, flomasterda yoki tushda A-2 formatli vatman qog'ozida bajariladi. Chizma va rasmlar o'qilishga qulay qilib masshtabda chizilishi kerak. O'lchamlar millimetrda, belgilar metrda qo'yilishi zarur.

Grafik qismi nizomga asosan 5-6 varaqni tashkil etishi kerak.

Vatman qog'ozning pastki o'ng tomonida shtamp chiziladi.

Grafik qismi ham talaba, maslahatchi, rahbar va kafedra mudiri tomonidan qo'l qo'yilib, so'ngra himoyaga ruxsat beriladi.

## Diplom loyixasining tarkibi va mazmuni.

Kafedrada ikki yunalish. Kasbiy ta'lim va "Bino va inshootlar kurilishi" va "Amaliy va tasviriy san'at" yo'nalishi bo'yicha diplom loyixasi bajariladi.

I.Kasbiy ta'lim "Bino va inshootlar qurilishi" yunalish bo'yicha bajariladigan diplom loyihasi tarkibi:

a) Mavzuga doir qurilish qismi.
b) Konstruktiv qism.
v) Texnologik qism.
g) O'quv - uslubiy qismi.

Yuqorida aytilgan bo'limlardan tashqari tushuntirish xatida kirish, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bo'lishi shart.

Kirish qismida: Diplom loyihasi mavzusining dolzarbligi isbotlanadi. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'limni isloh qilish bo'yicha qarorlari, hamda kasbiy pedagogik adabiyotlardan foydalangan holda o'quvchilarga puxta bilim berish xozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biri ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Shular asosida diplom loyihasi mavzusiga asoslanib va ishning qiskacha tasnifi keltiriladi.

## Mavzuga doir qurilish qismi.

Tushuntirish xatida qurilayotgan obyektning konstruktiv, xajmiy-rejaviy yechimi hakida ma'lumot, qurilish kurilmalari tasnifi, texnologik jarayon, shu obyektning boshqa binolar bilan (genplan va h.k.) bog'liqligi bayon etiladi. Qurilish qismining grafik chizmalariga obyektning fasadi, genplani (1 varaq), obyektning asosiy plani, qirqimlari va tugunlari (2 varaq kiradi).

Genplanda - berilgan shahar uchun shamolning yo'nalishiga qarab bino joylashishi, atrofdagi bino va inshootlar, texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar jadvali, eksplikasiya va shartli belgilar ko'rsatiladi.

## Konstruktiv qism.

Bu qismning tushuntirish xatida biror bir oddiy qurilish qurilmalarning (ferma, to'sin, yopma to'shamasi, ustun va x.k.) haqida tushuncha va uni hisoblash usullari bayon etiladi. Grafik qismda shu qurilmaning loyihasi bajariladi va shu loyihaga tegishli jadvallar bilan to'ldirildi.

## Texnologik qism

Texnologik qismda qurilish jarayonidagi ishlarni (g'isht, shuvoq, rang bo'yoq, pol, tom, yer, montaj va boshka ishlar) bajarish loyixasi yoki binoni tiklash uchun texnologik xarita ishlab chiqiladi. Bu ishlarni bajarish uchun kerakli hisob (ish

hajmlarini, mehnat kalkulyasiyasi va h.k.) mashina mexanizmlarni tanlash zarur bo'ladi. Shuningdek ish joylarini, kurilish mashinalarini yoki moslamalarining, materiallarning joylanishi ko'rsatiladi.

**Qurilish ishlarini bajarish usullari ishlab chikiladi.**

Grafik qismda texnologik xarita, ya'ni qurilish maydonini tashkil qilish, ma'lum qurilish ishi uchun ish joyini tashkil etilganligi, kerakli ishchi qurollari, jixozlari, moslamalar va mexanizmlar chizilishi kerak. Shuningdek, bu varakda ishlarni bajarish grafigi va ishlab chiqarish kalkulyasiyasi, moslamalar jadvali va hokazolar aks ettiriladi.

Xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi bo'yicha tushuntirish xatida qurilish ishlarini bajarishda xavfsizlik texnikasi masalalari, qurilish ishlarini xavf xatarsiz olib borish va qabul kilingan tashkiliy-texnologik ishlarga inson sog'ligi va hayoti nuqtai nazaridan prinsipial to'g'ri baxo berish uslublari yoritiladi.

## Nazorat savollari:

1. Diplom ishi tarkibi nimalardan iborat?
2. Kasb- ta'limning afzallik va kamchiliklari nimalardan iborat?

## Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar.


1. Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari uchun me'yyooriy – huquqiy hujjatlar to'plami. O'MKHTM. Toshkent, 2005.
2. Olimov Q. T. va boshqalar. Ixtisoslik fanlarini o'qitish metidikasi. – Toshkent: Fan, 2004.
3. "Qasbiy ta'lim" yo'nalishlari bo'yicha diplom loyixasini bajarish uchun metodik tavsiyalar. "Kasbiy ta'lim" fakulteti dekani dos. O'. T. O'sarov tahriri ostida Samarqand. 2010 y.
4. Mirsaidov K. J. Ixtisoslik fanlarini o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi. – Toshkent: Shiituvchi, 1996.
5. Xodjaboyev A. Xusanov L. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2007.
6. Abduqudusov O. O'rta maxsus, kasb – hunar ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiya jarayyonini samaradorligini oshirish muammolari. Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2002.


## Qo'shimcha tavsiya etilgan adabiyotlar


7. Avliyoqulov N. X. "Zamonaviy o'qitish texnologiyalari" Buxoro 2002 y.

8. Avliyoqulov N. X. “O’qitishning model tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari”. Buxoro. 2002 y.
9. D. Tojiboyeva, A. Yuldoshev “Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi” Toshkent 2009 y.

## 3-MAVZU. 6 Соат. Zamonaviy o’qitish uslublari. Aqliy hujum usuli, muammoli o’qitish texnologiyasi, kichik guruhlarga bo’lib dars o’tish va h. q.

**Reja:**

1. Zamonaviy o’qitish uslublari.
2. Aqliy hujum usuli.
3. Muammoli o’qitish usuli
4. kichik guruhlarga bo’lib dars o’tish

**Tayanch tushunchalar:** zamonaviy o’qitish, kichik guruhlar, aqliy hujum, muammoli o’qitish.

Kasb-hunar ta'limi tizimida kichik malakali mutaxassislarni tayyorlash ko`p jihatdan Ixtisoslik fan o`qituvchilari va muhandis-pedagoglarning layoqatlariga bog`liqdir. Ishlab -chiqarish ta'limi jarayonida kasbiy- pedagogik ko`nikma va malakalar tizimi yaratiladi, o`quvchilar kerakli ishlab iqarish tajribasiga, kasbiy mahoratga ega bo`ladilar. Shuning uchun kasb-hunar kollejlari Ixtisoslik fan o`qituvchilari va muhandis-pedagoglari ishlab chiqarish jarayonining va o`z mehnat faoliyatining mazmunini aniq tasavvur etishi lozim.

Hozirda kasb-hunar ta'limi tizimiga har yili Ixtisoslik pedagogika ma'lumotiga va ta'lim-tarbiya ish tajribasiga ega bo`lmagan yangi muhandis-pedagoglar, ya'ni korxonalarning malakali ishchilari, oliy va o`rta Ixtisoslik kasb-hunar ta'limi muassasalarining bitiruvchilari kelib qo`shilmoqda. Kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat ko`rsatayotgan muhandis-pedagoglar mutaxassislik malakasiga hamda pedagogik malakaga ega bo`lishi lozim Mutaxassislik malakasi deb, Mutahassislik fan o`qituvchilari va muhandis-pedagogning ixtisoslik soha bo`yicha ko`nikma va malakalari nazarda tutiladi. Ularning malakalarining ikkinchi qismi «Kasbiy pedagogika» bilim sohasiga tegishli bo`lib, pedagogik malakalarini o`z ichiga oladi. Chunki o`quv jarayoni faqatgina bilim berishga asoslanib qolmasdan, balki ta'lim va tarbiya psixologiyasi bilan uzviy bog`langan.

Bu esa ulardan psixologiya, mehnat pedagogikasi, kasbiy pedagogika, iqtisod asoslarini, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish asoslari bo`yicha ham malakalarga ega bo`lishini talab etadi. Mutaxassislik va pedagogik malakalar bilan bir qatorda Ixtisoslik fan o`qituvchilari va muhandis-pedagoglarda shaxsiy va ijtimoiy layoqatlarning ham bo`lishi talab etiladi (2-chizma).

Shaxsiy layoqatlar quyidagilarni o`z ichiga oladi: o`zini tutishi, shaxsiy ijodkorlik, mas'uliyatlilik va boshqalar. Ijtimoiy layoqatlarga tashkilotchilik qobiliyati, o`quvchilar bilan munosabat, jamoa bilan munosabat kiradi. Bundan tashqari o`qituvchi va muhandis- pedagoglar rahbarlik qobiliyatlariga ham ega bo`lishlari lozim. Chunki Ixtisoslik fan o`qituvchilari va muhandis-pedagoglar faqat o`quv ishlab chiqarish faoliyatini bajaribgina qolmay, balki guruhlarga rahbarlik qiladilar.

Oliy va o`rta Ixtisoslik ta'lim Vazirligi tomonidan 2001 yil 16 noyabrda tasdiqlangan «O`rta Ixtisoslik, kasb-hunar ta'limi muassasalarining rahbar, pedagog

va muhandis-pedagog xodimlariga qo`yiladigan malaka talablari to`g`risida»gi Nizomda o`qituvchining va kasbiy ta'lim o`qituvchisining lavozim majburiyatlari aniq bayon qilingan.

## TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHINING O'RNIGA KO'RA TA'LIM METODLARINING TURLARI

**Passiv metodlar.** Ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi bo'ladi. Bunda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchi bo'lib qoladi. Ushbu metodlar qo'llanilganda o'qituvchi mavzu boyicha ma'ruza qiladi, tushuntiradi, ta'lim vositalari orqali ma'lumotlarni taqdimot va namoyish qiladi. O'quvchi bu sharoitda faqatgina tinglovchi va kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Bunday metodlarga ma'ruza, namoyish, taqdimot, illyustratsiya va boshqalar kiradi.

**Aktiv metodlar.** Bu metodlardan foydalanganda ta'lim jarayonining markazida o'quvchi bo'ladi. Bunda o'qituvchi passiv, o'quvchi esa faol ishtirokchi bo'lib qoladi. O'qituvchi guruhni boshqaruvchi sifatida ishtirok etadi, o'quvchilar esa berilgan topshiriqlarni mustaqil fikrlab, muammolarni bartaraf eta oladigan darajada faoliyat yuritadilar. Bunday metodlarga aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyat, rolli o'oyinlar va boshqalar kiradi.

## BILIM MANBALARIGA KO'RA TA'LIM METODLARINING TURLARI

**Og'zaki metodlar**. Agar o'quvchilar asosiy o'quv axborotini o'qituvchining o'quv mulohazalari va isbotlari jarayonida yoki darslik mavzulari asosida olsalar, bunday metodlar og'zaki metodlar (tushuntirish, hikoya, suhbat va h.k.) jumlasiga kiradi.

Og'zaki metodlardan foydalanish jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanish mumkin. Ammo ular yordamchi rol, oynaydi.

Bayon darsda ko'rgazmali vositalardan foydalanish yoki foydalanmasligiga bog'liq bo'lmagan holda tuziladi. Masalan, tilkuv mashinasining tuzilishini tushuntirayotganda kinematik sxemadan foydalanish mumkin. Lekin isbot mantiqini kinematik sxema belgilamaydi, balki u tushunchani o'zlashtirishda yordam beradi, xolos.

Og'zaki metodlardan foydalanish muvaffaqiyatining asosiy ko'rsatkichlari o'quvchilarning yangi bilimlarini eslab qolishlari va aytib bera olishlaridir. Og'zaki metodlarda o'quvchilar o'qituvchi mulohazalarini takrorlaydilar, taqlid qiladilar.

O'quvchi o'qituvchining tushuntirish mantiqiga qanchalik yaqinlashsa, materialni shunchalik muvaffaqiyatli o'zlashtiradi.

Og'zaki metodlardan asosan yangi materialni o'rganish paytida foydalaniladi va bilimlarni egallashning boshqa usullari bilan qo'shib olib borilsagina, ular ta'limda yaxshi samara beradi.

**Ko'rgazmali metodlar** deganda, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko'p darajada bog'liq bo'lgan o'quv materialini o'zlashtirish shakllari tushuniladi.

Ta'limning ko'rgazmali vositalari bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish darajasini btlgilaydi. Bunda, masalan, tikuv mashinasi detallari namunalari

ko'rsatilishi yoki tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayonning videotasviri namoyish qilinishi mumkin.

Asosiy maqsad dars mazmuni, albatta. O'qituvchi esa qoshimcha tuzatishlar kiritishi mumkin, xolos.

Ta'limning bunday metodlaridan foydalanilganda o'quvchilarning bilish faoliyati ko'gazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tassavurlarga bog'liq bo'ladi. Ko'rgazmali qurollar bilimlarni tartibga solish va boyitishga, shuningdek, o'quvchilarning fikr yuritish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari o'quvchilarning bilim faoliyatida obrazli va mantiqiy, aniq va mavhum, hissiy va aqliy jihatlar nisbatini chuqur tushunishni talab etadi.

**Amaliy metodlar.** Mashqlar,mustaqil topshiriqlar, amaliy va tajriba ishlari asosida o'quv materialni egallash ko'rinishlari ta'limining amaliy metodlari jumlasiga kiradi.

Mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va tajriba ishlari asosida o'quv materialini egallash ko'rinishlari ta'limning amaliy metodlari jumlasiga kiradi. Ana shu metodlar yordamida amaliy ko'nikma va malakalar shakllantirish jarayoni o'quv faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ko'nikmani egallashning muvafaqqiyati uni shakllantirish sharoitiga bo'g'liq.

**An'anaviy ta'lim metodlari**

**Ta'lim metodlari-**o'quvchi va o'qituvchining muayyan maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan metodlar yigindisini ifodalaydi.

**An'anaviu dars** - muauyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustaxkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir.

O'quv materiali yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviu dars - ko'p hollarda ta'lim jarayoning birdan-bir modeli bo'lib qo'lmoqda. Ma'lumki an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. Shu bois, an'anaviy darsni "Markazda o'qituvchi turgan o'qitish modeli" deb ham atashadi. An'anaviu darsning asosiu maqsadi - dars mavzusining asosiu mazmunini, tushuncha va faktlarini o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga etkazish va tushuntirishdan iborat. Dars - oldin o'zlashtirilgan bilimlar bilan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar o'rtasida aloqa o'rnatilishidan boshlanadi. Yangi mavzuni yoritish, turli mashqlar yordamida mustahkamlash, darsga yakun yasash, xulosalash, baholash va uuga vazifa topshirish bilan yakunlanadi.

An'anaviu dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliu mashq kabi metodlardan foudalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviu dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aulanib qo'ladilar. Odatda, an'anaviu dars berishni - passiv dars berish metodi sifatida qaraladi. Lekin darsda o'quvchilarning faol yoki passivligi darsni qandau o'tishga va uni rejalashtirishga bogliq. An'anaviu darsning samaradorligini oshirish va darsda o'quvchilarning faolligini oshirish uchun yangi materialni mauda-mauda bo'laklarga bo'lib o'tish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'quvchilarning bu materialni qandau

o'zlashtirib borayotganliklarini nazorat qilib borish va bu maqsadda maqsadida turli xil mashq va topshiriqlarni bajartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buning uchun dars jarayoni o'qilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil ragbatlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliu hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, rolli o'uinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliu mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash metodlaridan foudalanish, ta'lim vositalaridan jouida va vaqtida foudalanish talab etiladi

## M a' r u z a  m e t o d i

**Ma'ruza-katta hajmdagi o'quv materialini nisbatan uzoq vaqt davomida monologik bayon etishdir.**

Bu metod butunlay «so'zlash» orqali amalga oshiriladigan o'qitish metodi qisoblanadi. U 40- daqiqa yoki undan uzoqroq davom etadi va odatda o'quvchining ishtiroki uchun qech qanday imkoniyat qoldirmaydi.

**Ma'ruzani tushunarliligini oshiruvchi jihatlar:**

- **Fikrni sodda tilda bayon etish**
- **Ma'ruza tuzilmasining (strukturasining) mantiqan to'qri tuzilganligi**
- **Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash**
- **Raqbatlantirish (stimullar)**
- **Notiqlik, ravon tilda gapirish va talaffus**

**Fikrni sodda tilda bayon etish.** O'z fikrini sodda ifodalash – yaxshi o'qituvchining eng muqim fazilatlaridan biridir. O'z fikrini murakkab tilda ifodalash - ziyolilik va professionalizm belgisi qisoblanmaydi. O'z fikrini sodda tilda ifodalash – tinglovchibop gapirish demakdir.

**Sodda tilda gapirishga quyidagilar vositasida erishiladi**:

- Aytilgan fikrni ko'rgazmali qilib yetkazish
- Fikrni qisqa gaplar vositasida ifodalash
- Oddiy so'zlarni ishlatish
- Atamalar ma'nosini tushuntirib ketish
- Chet tili kirib kelgan so'zlarni iloji boricha ishlatilmaslik, ishlatilgan taqdirda tushuntirish berish
- Sodda tuzilishga ega bo'lgan gaplarni ishlatish
- Faol fe'llarni ishlatish

**Ma'ruza tuzilmasining (strukturasining) mantiqan to'gri tuzilganligi.**

Ma'ruzaning ushbu belgisi ma'ruzaning tashqi tuzilishi va ichki tartibini to'qri tuzilganligini bildiradi. Ma'ruzaning tashqi tuzilishi - uni o'qishda qilinadigan quyidagi qatti-qarakatlarini bildiradi:

- Ma'ruza mavzusi bilan tanishtirish
- Mavzuni asoslash
- Mantiqiy tuzilma asosida ma'ruzani olib borish

- ➢ Ma'ruzani yakunlash

**Ma'ruzaning ichki tartibi uni o'qishda rioya qilinadigan mantiqiy ketma-ketlikni bildiradi:**

- Ma'lumotlar mantiqiy to'qri ketma-ketlikda berilishi
- Ma'ruzaning aloqida qismlari o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatish
- Mantiqiy ketma-ketlikka rioya qilish
- Bir fikrdan boshqa fikrga sakrab o'tishiga yo'l qoymaslik
- Muqim va uncha muqim bo'lmagan narsalarni farqlash
- «Fikrlar kalavasi» aniq bilinib turishi

**Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash.** Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash deganda, ma'ruza mazmunining ortiqcha vaqt ketmasdan, lo'nda, aniq va to'qri ifodalanishi tushuniladi:

- ➢ butunlay o'quv maqsadga qaratilgan
- ➢ asosiy mazmunga qaratilgan
- ➢ to'qri (bexato) ifodalardan iborat
- ➢ muqim va kerakli izoqlar bilan cheklangan

**Raqbatlantirish (stimullar).** Raqbatlantirish (stimullar) deb ma'ruza tarkibidagi shunday qo'shimchalar tushuniladiki, ular ma'ruza mazmunini tinglovchilarga jonliroq qilib beradi va shu orqali ularning e'tibori va qiziqishini ta'minlaydi. Raqbatlantirishga quyidagilar yordamida erishiladi:

- ➢ Ma'ruza mazmunlarini turli qiziqarli faktlar, masalan urf-odat, qikoya yoki misollar yordamida aniqlashtirish
- ➢ Taassurotli gapirish
- ➢ Aytilayotgan fikrlarni ko'rgazmali tarzda etkazish (vizuallashtirish)
- ➢ Shaxsiy fikrni bildirish
- ➢ O'quvchilarlarning fikr-mulohazalaridan foydalanish

Ma'ruzaning tuzilishi (strukturasi). Ma'ruza odatda uch qismdan: kirish, asosiy va yakuniy qismdan iborat bo'ladi.




**1-chizma. Ma'ruzaning tuzilishi.**

**"Ma'ruza" metodining bosqichlari quyidagi qismlardan iborat:**

**1. Kirish qismi:**

- Qutlash
- Mavzu
- Maqsad
- Tashkiliu savollar
- Motivastiya, qiziqishni uugotish

**2. Asosiu qism:**

- Asosiu fikr 1
- Asosiu fikr 2
- Asosiu fikr 3 va hokazo.

**3. Yakuniu qism**

- Natija va xulosa
- Umumlashtirish

**O'quvchilar bilan o'qituvchining birgalikdagi ushbu faoliyatini tashkil etishning samarali shartlari quuidagilardan iborat**:

- ma'ruzaning batafsil rejasini tuzish;
- ma'ruza rejasini eshittirish;
- rejaning har bir punktini yoritishdan so'ng qisqacha umumiu xulosa qilish;
- ma'ruzaning bir qismidan boshqa qismiga (bo'limiga) o'tishda mantiqiu bogliqlikni ta'minlash;
- muammoli bayon qilish;
- yozib olish zarur bo'lgan joularni ajratish (yozdirish);
- ma'ruzalarni uning alohida holatlarini batafsil tahlil qilish imkonini beruvchi seminar-mashgulotlari va amaliu mashgulotlar bilan qo'shib olib borish.

"Ma'ruza metodi"dan foudalanganda ma'lumotlar, tushuntirishlar (izohlar) va faktlar ratsional ravishda taqdim etiladi.

**"Ma'ruza" metodining afzalliklari:**

- aniq ilmiu bilimlarga tayanadi;
- vaqtdan unumli foudalaniladi;
- o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonini to'liq nazorat qilish imkoniyati paudo bo'ladi.

**"Ma'ruza" metodining kamchiliklari:**

- o'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qo'ladilar;
- o'qituvchi bilan o'quvchilar bevosita muloqotga kirisha olmaudilar;
- katta miqdordagi bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilar uchun qiuin kechadi;
- uzoq vaqt davomida diqqat bilan tinglab o'tirish o'quvchilarni tez toliqtiradi;
- eslab qo'lish darajasi barcha o'quvchilarda turlicha bo'lganligi sababli, sinf bo'uicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qo'lishi mumkin.

# SAVOL JAVOB METODI

**"Savol-javob" metodi-** o'quvchilargan mavzu yuzasidan savollarga javob berishni nazarda tutadigan metoddir.

Shubhasiz, savollar turli maqsadlarni ko`zlab beriladi, lekin bu maqsadlar alohida ko`rinishlarga ega bo`ladi va ular quyidagi maqsadlarda beriladi:

- tekshirish uchun – o`quvchilarning bilimini imtihon qilish orqali;
- o`rgatish uchun– javobni o`quvchining o`zi mushohada etishiga majbur qilish orqali;
- faoliyat yuritishga erishish uchun– o`quvchini aqlan tetik tutish orqali;
- turlicha bo`lgan fikr-mulohazalarni aniqlab olish uchun;
- o`xshashlik jihatlarni aniqlab olish uchun;
- kishining Ixtisoslik tajribasiga yaqinlashish uchun;
- tortinchoq o`rganuvchilarni jarayonga jalb etish uchun;
- o`quvchilarni dars jarayoniga jalb etish uchun.

**SAVOL TURLARI**

| **Savol turi** | **Tavsifi** | **Misollar** |
|---|---|---|
| Ochiq savol | Savol mohiyatiga ko`ra ko`p javobli bo`lib, shu sababli unga javoblar ham keng qamrovli bo`ladi. | O`qituvchining mas'uliyati nimalardan iborat deb o`ylaysiz? |
| | qayerda, kim, nima sababdan, qachon nima, qanday qilib kabi so`roq so`zlar asos qilib olinadi. | Bunday vaziyatda kim chora ko`rishi lozim?<br>Nima sababdan yakuniy bayonotlar tuzilishi kerak?<br>Qachon chora ko`rilishi kerak deb o`ylaysiz? |

| | | |
|---|---|---|
| | | O`quvchiga markazlashgan o`qitishning maqsadga muvofiq jihatlari nima?<br>Siz bu ishni qay yo`sinda tahlil qilgan bo`lar edingiz? |
| Buyruq savol | To`g`ridan-to`g`ri savol ko`rinishida emas, balki iltimos ohangida ifodalangan. | Fikr-mulohazalaringizni jamlang.<br>Vaziyatni tahlil qiling.<br>Tartibga soling.<br>O`xshash tomonlarni ajratib ko`rsating.<br>O`zingizning taxminiy munosabatingizni bildiring.<br>Farqni tushuntirib bering. |
| Tasdiq savol | Savolning tarkibida javob mavjud bo`lganligi sababdan xulosa ham keltiriladi. | Bu kabi nazariyot maqsadga muvofiq kelmaydi, shunday emasmi? |

## SAVOL BERISH QOIDALARI

1. Savollarni aniq va tushunarli ifodalash.
2. So'roq so'zlarni o'z o'rnida ishlatish.
3. Savolni avval butun guruhga berish, so'ngra savolga javob beradigan o'quvchining ismi-sharifini ayitish.

## QANDAY SAVOLLARNI BERMASLIK LOZIM?

➢

➢ **Zanjirband savollar** - o'qituvchi ketma-ket bir necha savollar berib, o'quvchilarga na oylashga, na javob berishga vaqt beradi. Ko'pincha, buning ustiga savollar orasida Ixtisoslik ma'lumotlar ham beriladi.

➢ **Suggestiv savollar** - o'qituvchi o'quvchilar uning fikriga qo'shilishlarini talab qiluvchi chaqiriqini savol shaklida ifodalaydi. Bunday savollar yashirin tarzda o'z fikr-mulohazasini bildirishdir. O'qituvchi o'quvchiga huddi tayyor javob berib qoyganday bo'ladi. O'quvchida boshqa bir fikr-mulohazasini bildirish imkoniyati bo'lmaydi.

➢ **Al'ternativ savollar** - ya'ni o'quvchi faqat "HA" yoki "YO'Q" deb yoki bo'lmasa, bitta yoki ikkala javobni berishi mumkin bo'lgan savollar. Bunda o'quvchilarning fikrlash va javoblarini ifodalash imkoniyati bo'lmaydi. Ba'zan javoblar tasodigan to'g'ri kelib qolishi ham mumkin.

➢ **Sterepotip savollar** -savolning mazmunida "**. . .** nima?" degan ma'no bo'lmasligi kerak. Savol aniq va tushunarli berilishi lozim.

➢ **Qopqon yoki qalbaki savollar -** biror o'quvchini uyaltirish uchun, yashiringan tanbeh yoki kesatib gapirishlar tariqasida berilgan savollar.

**"Savol-javob" metodining afzalliklari:**

- vaqtdan unumli foudalaniladi;
- mavzuni takrorlashga yordam beradi;
- o'qituvchi guruhni to'liq nazorat qila oladi.

**"Savol-javob" metodining kamchiliklari:**

- o'quvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati cheklangan;
- noto'g'ri savollar berish xavfi tug'iladi;
- o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga sub'ektiv (xolis bo'lmagan) baho berilishi mumkin.

***Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish***

Hozirgi vaqtda kasb-hunar kollejlarida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishiga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qo'lgan holda, unga turli-tuman o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini kotarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni o'qilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil ragbatlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, muammoli vaziyat, Yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli oyinlar metodlarini qo'llash, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, turli baholash metodlaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

Bu metodlarni **interfaol** yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Bu metodlar qo'llanilganda o'qituvchi o'quvchini faol ishtirok etishga chorlaudi. O'quvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foudali jihatlari quuidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- o'quvchini yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini o'quvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- o'quvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi;
- o'qishni soglom muhitda saqlab qo'linishi;
- o'qituvching engillik yaratib beruvchi shaxsga aulanishi.

O'quvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Shu sababdan, o'quvchining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun etarli darajada o'quvchilar ishtiroki va amaliyoti mavjud bo'ladi.

Bu metodlar asosan o'qituvchining turli faoliyat shakllari orqali amalga oshiriladi.

Kichik guruhlarda ishlash - o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, berilgan topshiriqning echish uo'llarini ishlab chiqishni taqozo etuvchi metoddir.

Ushbu metod qo'llanilganda o'quvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodi qo'llanilganda o'qituvchi boshqa noan'anaviu metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholau oladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodini qo'llash bosqichlari**

1. Faoliyat uo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. O'quvchilar guruhlarga 3-5 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. O'qituvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va o'qituvchi tomonidan uo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.




**2-chizma.«Kichik guruhlarda ishlash» metodining tuzilmasi.**

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

- barcha o'quvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- kuchsiz o'quvchilar bo'lganligi sababli kuchli o'quvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha o'quvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiu raqobatlar paudo bo'lib qo'lishi mumkin.
- Guruh ichida o'zaro nizo paudo bo'lishi mumkin.

## "DAVRA SUHBATI" metodi

**Davra suhbati -** o'quvchilar o'rtasida va kichik guruhlarda aulana stol atrofida o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

«Davra suhbati» metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joulashtirish kerak. Bu har bir o'quvchining bir-biri bilan «ko'z aloqasi»ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida o'qituvchi mavzuni boshlab beradi va o'quvchilardan ushbu mavzu bo'uicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raudi va aulana bo'ulab har bir o'quvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan o'quvchini barcha diqqat bilan tinglaudi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.




**Belgilar:**
1-o'quvchilar
2-aylana stol

**3-chizma. Davra stolining tuzilmasi.**

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aulana shaklida joulashtirilib, har bir o'quvchiga konvert qogozi beriladi. Har bir o'quvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'uicha o'z savolini beradi va yonidagi o'quvchiga uzatadi. Konvertni olgan o'quvchi o'z javobini qogozga yozib, konvert ichiga solib qoyadi va yonidagi o'quvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aulana bo'ulab harakatlanadi. Yakuniu qismda barcha konvertlar uigib olinib, tahlil qilinadi.

**“Davra suhbati” metodining bosqichlari**

1. Mashg’ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. O’qituvchi o’quvchilarni mashg’ulotni o’tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Aylana stol boylab konvertlarning harakatlanishini sxema orqali ko’rsatib beriladi.
4. Har bir o’quvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha o’quvchi bo’lsa, shunchadan «Javoblar varaqalari»ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qoyiladi. O’quvchi konvertga va «Javoblar varaqalari»ga o’z ismi-sharifini yozadi.
5. O’quvchi konvert ustiga mavzu boyicha o’z savolini yozadi va yonidagi o’quvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan o’quvchi konvert ustidagi savolga «Javoblar varaqalari»dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qoyadi hamda yonidagi o’quvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli boylab aylanib, yana savol yozgan o’quvchining o’ziga qaytib keladi. Bu o’quvchi konvertdagi «Javoblar varaqalari»ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig’ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali o’quvchilar berilgan mavzu bo’uicha o’zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar.




**4-chizma. «Davra suhbati» metodining tuzilmasi.**

**“Davra suhbati” metodining afzalliklari:**

- o’tilgan materialni yaxshi esda qo’lishiga yordam beradi;
- barcha o’quvchilar o’zaro muloqotda bo’ladilar;
- har bir o’quvchi o’zining ishtirok etish mas’uliyatini his etadi;
- o’z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati mavjud.

**"Davra suhbati" metodining kamchiliklari:**

- ko'p vaqt talab etiladi;
- o'qituvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- o'quvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

## "ISHBOP OYIN" metodi

